

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Rektor _____ Sh.Sirojiddinov

2020- yil “ ____ ” _____

“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi

2020-yil “ ____ ” _____

Ro‘yxatga olindi: №BD: 5120100–3.04

2020-yil “ ____ ” _____

O‘ZBEK TILI TARIXI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

Toshkent – 2020

Fan/modul kodi		O'quv yili	Semestr 5/6	ECTS - Kreditlar 6/6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 5/6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'zbek tili tarixi	165		195	360
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan, shuningdek, Yurtboshimizning "O'zbek tili qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shallanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi" degan fikrlaridan kelib chiqqan holda o'zbek tili tarixi sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, tilshunoslik tarixining eng muhim sahifalari borasida tasavvur hosil qilish, til tarixiga bag'ishlangan ma'ruzalar o'qish o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.</p> <p>"O'zbek tili tarixi" fanini o'qitishdan maqsad shuki, o'zbek tilining bir necha yuz yillik shakllanish va taraqqiy etish dinamikasini kuzatish, qadimgi turkiy til, o'zbek tilining tarixiy grammatikasi, davrlar osha yetib kelgan qo'lyozma manbalar va ularning mavjud nashrlaridagi ashyoviy materiallarga suyangan holda fonetik, morfologik, leksik hamda sintaktik xususiyatlari haqida bilim berishdir.</p> <p>Fanning vazifasi talabalarda "O'zbek tili tarixi" fani tarkibidan o'rin olgan "Qadimgi turkiy til", "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" va "O'zbek adabiy til tarixi" predmetlarining vujudga kelishi hamda rivojlanishi bo'yicha bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash; VI-X asrlarga oid O'rxun-Enasoy bitiklari, XI-XIV asrlarda yaratilgan eski turkiy til manbalari hamda XV-XIX asrlarga taalluqli eski o'zbek adabiy tili yodgorliklari fonetikasi, morfologiyasi, leksikasi va gap qurilishi haqida bilim berishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">"O'zbek tili tarixi" fani mazmuni</p> <p style="text-align: center;">1-MODUL. QADIMGI TURKIY TIL. GRAFIKA, FONETIKA, LEKSIKA</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Qadimgi turkiy til. Grafika</p> <p>Qadimgi turkiy til predmeti, maqsad va vazifalari, qadimgi turkiy obidalarning topilishi, o'qilishi, ilm ahli va keng jamoatchilikka ayon bo'lishi.</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu. Qadimgi turkiy yozuvlar</p>				

Yozuv. O‘zbek tili va yozuvi tarixi. O‘zbek tilining yozuv tizimi: run, uyg‘ur, moniy, sug‘d, brahma va suryoniy yozuvlari. Bu yozuvlarning o‘ziga xos jihatlari.

3-mavzu. Qadimgi turkiy til fonetikasi

Qadimgi turkiy tilning fonetik xususiyatlari. Singarmonizm. Singarmonizmning ikki ko‘rinishi; palatal-veliyar (tanglay) garmoniya, labial (lab) garmoniyasi, ularning qonuniyatlari, bu qonuniyatning asosan unlilar, qisman undoshlar doirasida amalga oshishi, singarmonizmning turkiy so‘zlarda amal qilishi.

4-mavzu. Qadimgi turkiy til leksikasi.

Qadimgi turkiy til leksikasi, polisemya, o‘z qatlam, zoonim, gidronim, antroponim, fitonim, toponim, gidronim, oronim, o‘zlashma qatlam.

2-MODUL. QADIMGI TURKIY TIL GRAMMATIKASI

5-mavzu. Qadimgi turkiy til morfologiyasi. Ot so‘z turkumi

Otlarning yasalishi, son kategoriyasi, egalik, ko‘plik va kelishik shakllari.

6-mavzu. Sifat, son, olmosh so‘z turkumlari

Sifatning morfologik belgilari, asliy va nisbiy sifatlar, sifat darajalari. Sifatlarning yasalishi.

Sonning ta‘rifi, numerativ (hisob) so‘zlar, ularning leksik-semantik xususiyatlari. Sanoq sonning ma‘no turlari: dona, chama, taqsim, jamlovchi sonlar, ularni hosil qiluvchi qo‘shimchalar, ularning qadimgi turkiy va hozirgi o‘zbek tilidan farq qiladigan tomonlari, ikkilangan (cho‘ziq) undoshli sonlar fonetik tizimida yuz bergan o‘zgarishlar.

Olmoshning ta‘rifi, boshqa so‘z turkumlaridan farqi, uning ma‘no turlari, sintaktik vazifasi. Kishilik olmoshlari, ko‘rsatish, so‘roq, o‘zlik olmoshlari.

7-mavzu. Fe‘l va ravish so‘z turkumlari

Fe‘lning funksional formalari, fe‘l yasalishi, harakat va holat fe‘llari. Ravish. Ravishning ma‘no turlari. Ravishlarning yasalishi.

8-mavzu. Yordamchi so‘z turkumlari

Ko‘makchilar. Sof va vazifadosh ko‘makchilar.

Bog‘lovchilarning ta‘rifi, uning teng va ergashtiruvchi semantik guruhlari.

Yuklamalarning qadimgi turkiy tilda amal qilishi «affiks-yuklama», «so‘z-yuklama» tushunchalari izohi, yuklamalarning ma‘no turlari.

3-MODUL. QADIMGI TURKIY TIL SINTAKSISI

9-mavzu. So‘z birikmasi va gap. Gap bo‘laklari

Sintaksis. So‘z birikmalari turlari. Izofa va uning ko‘rinishlari. Gap bo‘laklari. Gap bo‘laklarining uyushish hodisasi.

10-mavzu. Gap turlari.

Qadimgi turkiy tildagi sodda gap tiplari, uning maqsadga ko‘ra turlari: darak, so‘roq va buyruq gaplar. Sodda gap. Gapda bosh bo‘laklarning ishtirikiga ro‘ra turlari.

11-mavzu. Qo‘shma gap.

Qo‘shma gap. Qo‘shma gap turlari: bog‘langan qo‘shma gaplar, ergashgan qo‘shma gaplar, bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplar. Qo‘shma gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlari.

4-MODUL. O‘ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI. ESKI O‘ZBEK TILI FONETIKASI

12-mavzu. Eski o‘zbek tili fonetikasi

Eski o‘zbek tilining unlilar va undoshlar tizimi, singarmonizm hodisasi. Singarmonizmning ikki ko‘rinishi; palatal-veliyar (tanglay) garmoniya, labial (lab) garmoniyasi, ularning qonuniyatlari.

5-MODUL. ESKI O‘ZBEK TILI MORFOLOGIYASI

13-mavzu. Eski o‘zbek tilining morfologiyasi. Ot so‘z turkumi

Otlarda grammatik son kategoriyasi, ko‘plik shakllari, -lar qo‘shimchasining turli modal ma‘nolari, arabcha ko‘plik, forscha ko‘plik shaklining qo‘llanishi.

Egalik shaklining kishilik olmoshlari ko‘chimidan (transformatsiyasidan) paydo bo‘lganligi.

Otlarda kelishiklar. Qadimgi turkiy til va eski o‘zbek tilidagi kelishiklarning miqdor va sifat jihatdan o‘xshash va farqli tomonlari. Bosh kelishik, uning semantik va sintaktik xususiyatlari. Otlarning yasalishi.

14-mavzu. Sifat, son so‘z turkumlari

Sifatlarning yasalishi, asliy va nisbiy sifatlar, sifat darajalarining morfologik-sintaktik va sintaktik usullar bilan hosil qilinishi (eski o‘zbek tiliga xos xususiyatlar ko‘rsatiladi).

Sonda so‘z yasaliş tizimining yo‘qligi, ularning leksik-semantik xususiyatlari, sonning ma‘no turlari.

15-mavzu. Olmosh so‘z turkumi

Olmoshning ta‘rifi, boshqa so‘z turkumlaridan farqi, uning ma‘no turlari, sintaktik vazifasi.

Kishilik olmoshlari, ko'rsatish, so'roq, o'zlik, belgilash, gumon olmoshlari.

16-mavzu. Fe'l va ravish so'z turkumlari

Bo'lishli va bo'lishsizlik. Bu kategoriyaning til taraqqiyotining barcha davrlarida amal qilinganligi, uning sodda (affiksial) va murakkab (to'liqsiz fe'l modal so'zlar bilan) shakllarida namoyon bo'lishi.

Fe'llarning tuzilishi jihatdan shakllari. Yetakchi va ko'makchi fe'l tushunchalari, uning eski o'zbek tilidagi o'ziga xos semantik xususiyatlari. To'liqsiz fe'l va uning variantlari, qo'llanish doirasi.

Fe'lning mayl va zamon shakllari. Mayl va zamon shakllarining tuslanish tushunchasi bilan bog'langanligi. Tuslovchi qo'shimchalarning kishilik olmoshlaridan ko'chim (transformatsiya) tufayli paydo bo'lganligi. Fe'lning shart mayli, uning qadimgi turkiy tilda hosil qilinishi, eski o'zbek tilidagi ko'rsatkichlari. Fe'llarning yasalishi.

Ravishning ma'no turlari. Ravishlarning yasalishi.

17-mavzu. Yordamchi so'z turkumlari

Sof ko'makchilar, ularning ikki guruhga ajratilishi; eski o'zbek tilida (shu jumladan, qadimgi turkiy tilda ham)gina qo'llangan ko'makchilar, eski o'zbek va hozirgi o'zbek tillarida aynan va qisman fonetik o'zgarishlar bilan qo'llangan ko'makchilar, ularning semantikasi, kuchli fonetik o'zgarishga uchragan ko'makchilarga tavsif beriladi. Funksional ko'makchilar, ularning ot, ravish, fe'l ko'makchi guruhlari, semantikasi hozirgi shakli bilan taqqoslanadi.

Bog'lovchilarning teng va ergashtiruvchi semantik guruhlari. Teng bog'lovchilarning biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi, inkor turlari, ularning turkiy va o'zlashma leksik tarkibi, har bir bog'lovchining ma'no xususiyatlari, eski o'zbek tilida qo'llanish imkoniyatlari.

Yuklamalarning eski o'zbek tilida amal qilishi «affiks-yuklama», «so'z-yuklama» tushunchalari izohi, yuklamalarning ma'no turlari.

6-MODUL.ESKI O'ZBEK TILINING TARIXIY SINTAKSISI

18-mavzu. So'z birikmasi va gap. Gap bo'laklari

Sintaksis. So'z birikmalari turlari. Izofa va uning ko'rinishlari. Gap bo'laklari. Gap bo'laklarining uyushish hodisasi.

Eski o'zbek tili sintaktik qurilishining qadimgi turkiy til va hozirgi o'zbek tiliga o'xshash va ulardan farqli tomonlari. Hozirgi o'zbek tili sintaktik qurilishi bevosita eski o'zbek tili sintaktik qurilishining davomi ekanligi. Morfologik va sintaktik qurilish munosabati, taraqqiyoti. Sintaktik qurilishga arab, fors tillarining ta'siri masalasi.

19-mavzu. Gap turlari.

Eski o'zbek tilida sodda gap tiplari, gapning maqsadga ko'ra turlari: darak, so'roq va buyruq gaplar.

Yig'iq gap, yoyiq gap. Gapda bosh bo'laklarning ishtirikiga ro'ra turlari.

20-mavzu. Murakkablashgan gaplar.

Yozma manbalar tilida ajratilgan bo'laklari, undalma, kirish so'z, kirish birikmalar va kirish gaplarning qo'llanishi. Kirish so'zlar, ularning mavzu guruhlari va semantikasi, tarkibiy xususiyatlari.

Yozma manbalarda forsiy yoyi vahdat shaklining izohlanishi bilan bog'liq sintaktik konstruksiyalar.

21-mavzu. Qo'shma gap.

Qo'shma gap turlari: bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan qo'shma gaplar, bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar.

7-MODUL. O'ZBEK ADABIY TILI TARIXI

22-mavzu. Adabiy til rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy voqealar bilan bog'liqligi. Adabiy til turlari. Uslublar taraqqiyoti.

O'zbek adabiy tili tarixi predmeti, adabiy til, uning ta'rifi, me'yorlashtirilgan til ekanligi, yozma va og'zaki shakllari, «O'zbek adabiy tili tarixi» yozma adabiy til tarixini o'rganishi. Adabiy til va uning tayanch dialekti tushunchasining tarixiy tushuncha ekanligi. Adabiy til va so'z san'atkorlari. Adabiy tilning an'ana, ijtimoiy ong va ijtimoiy turmush taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda takomillashib borishi. Adabiy tilga davlat ahamiyatining berilishi. Adabiy tilning taraqqiyoti darajasi xalq madaniyati taraqqiyoti darajasini bildirishi.

Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari. Adabiy tilni tarixiy-uslubiy jihatdan o'rganish. Adabiy til uslublari.

23-mavzu. O'zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turkiy tillarning o'rganilishi. Rus turkologlarining turkiy tillarga oid tasniflari. O'zbek xalqi va tilining nomlanish tarixi: turk, chig'atoy, sarta, o'zbek atamalarining qo'llanilish tarixi va ilmiy asoslanishi. O'zbek etnonimining paydo bo'lishi va iste'molga kirishi. O'zbek manbalarda qo'llanishi.

24-mavzu. O'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari

O'zbek adabiy tilining boshqa tillarga munosabati. Uning tarixiy ildizlari. O'zbek adabiy tili va turkiy adabiy tillar. Turkiy til oilasi. O'zbek adabiy tilining boshqa turkiy adabiy tillarga fonetik, leksik va grammatik jihatidan o'xshash va ulardan farqli xususiyatlari.

25-mavzu. Eski turkiy adabiy til

XI-XIV asrlardagi adabiy tilning taraqqiy etishida tarixiy voqealarning ahamiyati, bu davrdagi adabiy tilning «Qoraxoniylar», «Oltin O'rda»,

«Chig‘atoy» nomlari bilan yuritilishining sabablari, qarluq-uyg‘ur, qipchoq-o‘g‘uz unsurlarining adabiy manbalarda aks etishi, bu davrda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat», Rabg‘uziyning «Qissasi Rabg‘uziy», «Qissai Yusuf», «O‘g‘uznoma», «Tafsir» asarlari tili va uslubi. «Xisrav va Shirin» dostonining til xususiyatlari.

26-mavzu. Eski o‘zbek adabiy tili xususiyatlari

Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari, uning eng muhim til xususiyatlari, uslubi. Xorazmiy asarlari tilining keyingi davr adabiy tili taraqqiyotiga ta’siri. Alisher Navoiyning bu asar tiliga murojaat qilishi.

Eski o‘zbek adabiy tili taraqqiyotida Durbek. Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy va Lutfiylarning o‘rni. Ular ijodida eski turkiy til unsurlari bilan birga jonli til xususiyatlarining joy olganligi, davrga xos adabiy normalarning vujudga kela boshlashi.

27-mavzu. Alisher Navoiy - o‘zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko‘targan siymo

Alisher Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik me’yorlar. “Muhokamatul-lug‘atayn” asarining o‘zbek adabiy tili taraqqiyotida tutgan o‘rni. Alisher Navoiy asarlarida arxaizm tushunchasi. «Muhokamatul lug‘atayn» asari tilshunoslik asari sifatida, unda so‘z qudrati, arab va fors tillariga bildirilgan munosabat, tillarning kelib chiqishi, fors-tojik va turkiy (o‘zbek) tillari qiyosiy tahlili, o‘zbek tilining eng muhim fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari haqidagi, badiiy til mahorati haqidagi ma’lumotlar tahlili. Alisher Navoiy asarlari tilining o‘z davrida va undan so‘ng o‘rganilishi. Uning asarlari bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar va grammatik asarlar.

28-mavzu. Bobur va Muhammad Solih asarlarining til xususiyatlari

O‘zbek adabiy tili taraqqiyotini o‘rganishda Bobur qarashlarining ahamiyati. XVI asrda Alisher Navoiy an’anasining davom etishi. Zahiriddin Muhammad Bobir asarlari tili. Bobirning nazmiy asarlarida turkiy so‘zlar badiiy qiymatining yanada oshishi. «Bobirnoma» -XVI asr adabiy tilining eng muhim manbasi sifatida. Xatti boburiyning ahamiyati.

Muhammad Solih asarlari tili – XVI asr dostonlari tilining namunasi. Uning eng muhim fonetik, leksik, grammatik xususitlari. Tarixiy dostonchilikda til va uslub masalasi.

8-MODUL. XVII - XX ASRDA O‘ZBEK ADABIY TILI

29-mavzu. XVII -asr XIX asrning birinchi yarmida o‘zbek adabiy tili

XVII-XX asrlarda tarixiy, ilmiy asarlarning yaratilishi, Abulg‘oziy Bahodirxon tarixiy asarlari tili, Turdi Farog‘iy, Munis Xorazmiy, Gulxaniy asarlarining lisoniy xususiyatlari.

30-mavzu. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida o‘zbek adabiy tili

XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida til vaziyati. Muqimiy, Furqat Avaz O‘tar asarlarining lisoniy xususiyatlari. Gazeta-publitsistika uslubining shakllanishi. O‘zbek tili leksikasi, grammatikasi va funksional uslublaridagi o‘zgarishlar.

XIX asrning 2-yarmida vaqtli matbuot va ayrim adabiy asarlar tilida anarxiyaning-jargonlar, varvarizm, tatarizm, turkizm hamda dialektizmlarning avj olib ketganligi, ularning sabablari.

31-mavzu. Adabiy tilning takomilida lug‘at va grammatik asarlarning o‘rni

O‘zbek lug‘atchilik tarixi. “Devoni lug‘at it-turk” asari ilk lug‘atchilikning noyob namunasi. Lug‘atchilik an‘anasining keyingi davrlardagi taraqqiyoti. Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar. O‘zbek adabiy tilining takomilida grammatik asarlarning roli.

32-mavzu. Adabiy tilning XX asrdan keyingi takomili

20-yillar o‘zbek adabiy tili, uning grafik, fonetik, morfologik va sintaktik qurilishdagi o‘zgarishlar. Bu davrning imlo tizimi, bunda «Chig‘atoy gurungi» tashkilotining tashabbuskorligi. 20-yillar o‘zbek tilshunosligida davr adabiy tilining aks etishi. O‘zbek tili leksik tarkibi. Bu davrdagi o‘zbek tilining tayanch dialekti. So‘z tanlash va uslub masalasi, lotin alifbosiga o‘tish davridagi munozaralar.

30-yillar o‘zbek adabiy tiliga tavsif. Rus va baynalminal fonetik va grammatik unsurlarning o‘zbek tilida kengroq qo‘llana boshlashi.

20-30-yillar o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Ashurali Zohiriy, Avloniy kabi shoir va yozuvchilar asarlari tilining ahamiyati.

III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg‘ulot uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. O‘rxun yozuvi va uning yodgorliklari.
2. Qadimgi turkiy til davri va uning manbalari.
3. Enasoy va Talas yodgorliklari.
4. O‘rxun-Enasoy yozuvi alifbosi jadvalini tuzish, ko‘p variantli harfiy belgilarga izoh berish.
5. Yozuvlar – ajdodlarimizning buyuk kashfiyoti.
6. Uyg‘ur yozuvi va uning bitiktoshlari.
7. Qadimgi turkiy til leksikasi.
8. Qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili unlilar tizimi, undagi miqdoriy va sifat o‘zgarishlar.

9. Otlarning yasalishi.
10. Sifatlarning yasalishi.
11. Son turlari. Sanoq, jamlovchi, tartib sonlar, numerativ soʻzlar.
12. Olmosh turlari. Kishilik, oʻzlik, soʻroq olmoshlari.
13. Feʼldagi boʻlishli va boʻlishsizlik, mumkinlik va nomumkinlik. Feʼl darajalari, yasalishi.
14. Ravishlarning yasalishi.
15. Koʻmakchilar, bogʻlovchilar, yuklamalar, undovlar.
16. Soʻz birikmalari.
17. Gap boʻlaklari. Gapning mazmuniga koʻra turlari.
18. Qoʻshma gaplar, ularning qadimgi turkiy va eski oʻzbek tilidagi oʻxshash va ulardan farqli tomonlari.
19. Bogʻlangan qoʻshma gaplar. Bogʻlovchisiz bogʻlangan qoʻshma gaplar.
20. Eski oʻzbek yozuvi harfiy belgilarini hosil qiluvchi shakllar.
21. Eski oʻzbek yozuvining alohida shakllari.
22. Unli tovushlarning yozuvda ifodalanishi.
23. Mustaqil soʻz turkumlariga xos jihatlar.
24. Yordamchi soʻz turkumlarining funksiyasi.
25. Ismdan ot yasovchi affikslar paradigmasi.
26. Feʼldan ot yasovchi affikslar paradigmasi.
27. Qadimgi turkiy tilda tarkibli sanoq sonlarning atalishi.
28. Oʻzlik olmoshlarining qadimgi kend shakli.
29. Ravishdosh hosil qiluvchi affikslar.
30. Feʼl yasashda mahsuldor affikslar, Shart feʼlining analitik shakllari.
31. Ravishning yasalish usullari.
32. Tobe birikmalarning va ularning turlari.
33. Vositali va vositasiz toʻldiruvchilar va holning ifodalanish yoʻllari.
34. Eski oʻzbek tilida ergash gapli qoʻshma gaplar taraqqiyoti.
35. Adabiy til tarixi – uslublar tarixi.
36. Oʻzbek tili tarixini davrlashtirish xususida oʻzbek tilshunoslari dunyoqarashi.
37. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi rus turkologlarining turkiy tillarga oid tasniflari.
38. Turk, chigʻatoy, sart, oʻzbek atamalarining qoʻllanilish tarixi va ilmiy asoslanishi.
39. Turkiy tillar, jumladan, oʻzbek tilining qardoshligi masalasi.
40. Arab, fors-tojik va rus tillarining oʻzbek tiliga taʼsiri.
41. Mahmud Koshgʻariy – turkiy tillarni qiyosiy oʻrganish metodining asoschisi
42. Qadimgi turkiy tilning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi roli.
43. Mahmud Koshgʻariyning turkiy dialektlar haqidagi qarashlari.
44. “Qutadgʻu bilig” va “Hibatul-haqoyiq” asarlarining til xususiyatlari va ilmiy oʻrganilishi.
45. Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asari va uning tili.

46. Oltin O'rdada adabiy tili yozma yodgorliklaridan "Muhabbatnoma", "Guliston bit-turkiy" asarlarining til xususiyatlari.
47. "Qisasi Rabg'uziy", "Xusrav va Shirin" asarlarida qadimgi kitobiy til hamda "o'g'uz-qipchoq" unsurlarining aks etishi.
48. Eski o'zbek adabiy tili davrida yaratilgan badiiy asarlar tiliga xos lisoniy normalarning vujudga kela boshlashi.
49. "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarining tilshunoslikdagi o'rni.
50. "Boburnoma"da turli sohalarga oid so'zlarning ishlatilishi.
51. XVII – XIX asrlar adabiy tiliga xalq so'zlashuv tilining ta'siri
52. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida o'zbek adabiy tilining grafik, fonetik, morfologik va sintaktik qurilishidagi o'zgarishlar.

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e'tibor berish tavsiya etiladi.

IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar olingan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlaydilar, darslik va o'quv qo'llanmalaridan mavzuga oid ma'lumotlarni o'zlashtiradilar. Matnni grafik va fonetik, so'z shakllarini morfologik va sintaktik tahlil qiladilar.

Seminar mashg'uloti uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadimgi turkiy manbalar, ularning o'rganilish tarixi.
2. Qadimgi turkiy til fonetik tizimidagi o'zgarishlar, uning harfiy ifodalari.
3. Qadimgi turkiy til leksikasi ustida ishlash.
4. Bitiktoshlardan birini tanlab, talaba qiziqqan sohaga oid so'zlarni to'plash.
5. Biror kichik matnni fonetik tahlil qilish.
6. Muayyan kichik matnni grammatik jihatdan tahlil qilish.
7. Bitiktoshlardan birini tanlab, kishi nomlari (antroponim) va joy nomlari (toponim)ga oid so'zlarni to'plash.
8. Unlilar hamda undoshlar tizimi, ularga xos xususiyatlar.
9. Otlarda egalik, ko'plik, kelishik kategoriyalari.
10. Sifat turlari va darajalari.
11. Son turkumi paradigmasi.
12. Fe'ning grammatik – funksional shakllari.
13. So'z yasalishi. Affiksatsiya va kompozitsiya.
14. Tobe birikma, teng birikma.
15. Gapda bosh bo'laklarning ifodalanishi.
16. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari va ularning ifodalanishi.
17. Unlilar hamda undoshlar tizimi, ularga xos xususiyatlar.
18. Manbadan mavzuga doir misollar to'plash, izohlash.
19. Raqamlardan so'z va jumlar hosil qilish.
20. Unlilar hamda undoshlar tizimi, ularga xos xususiyatlar.

21. Otlarda egalik kategorisi.
 22. Otlarda ko‘plik kategorisi.
 23. Otlarda kelishik kategorisi.
 24. Olmoshning turlari.
 25. Sonlarning ifodalanishi.
 26. Sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi.
 27. Ravish yasalishi, ravishlarning ma’no turlari.
 28. Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, undov so‘zlar.
 29. So‘z yasalishi. Affiksatsiya va kompozitsiya.
 30. Tarixiy sintaksisga xos jihatlar.
 31. So‘z birikmalari va ularning turlari.
 32. Gapda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari bo‘laklarning ifodalanishi.
 33. O‘zbek tili leksikasida qadimgi turkiy tilga xos unsurlarning qo‘llanilishi.
 34. XI – XII asrlar adabiy tilida d-lashish va “y”lashish hodisalarining parallel ravishda qo‘llanilishi.
 35. Adabiy tilga arab, fors-tojik va rus tillarining o‘zbek tiliga ta’siri masalasi.
 36. Ilk davr o‘zbek adabiy tilining turkiy adabiy til tarkibida taraqqiy etganligi.
 37. “Hibatul-haqoyiq”, “Qutadg‘u bilig” dostonining til xususiyatlari.
 38. “Devoni lug‘otit turk” asari va turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish metodi.
 39. “O‘g‘uznoma” dostonining til xususiyatlari.
 40. “Tafsir” asarining til xususiyatlari.
 41. XII – XIV asrlar adabiy manbalarining yangi adabiy janrlar hisobiga boyishi. “Qisasi Rabg‘uziy” asarining til xususiyatlari.
 42. Qarluq-xorazm adabiy tili.
 43. Oltin O‘rda davlatida til vaziyati.
 44. “Muhabbatnoma”, “Guliston bit-turkiy” asarlarining tili va uslubi
 45. Temuriylar saltanati davrida til vaziyati.
 46. Mamluklar davrida turkiy tilning mavqeyi.
 47. XII – XIV asrlar adabiy manbalarining yangi adabiy janrlar hisobiga boyishi.
 48. Alisher Navoiy asarlari tili va uslubi, uning davr adabiy muhitiga ta’siri.
 49. Boburning tilshunoslikka oid qarashlari.
 50. “Boburnoma” ning tili va uslubi, unda turli sohalarga oid so‘zlarning ishlatilishi
 51. XV – XIX asrlar o‘rtasida lug‘atchilik.
 52. XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida milliy til tushunchasi.
 53. Muqimiy, Furqat, Zavqiy asarlarining tili.
- Izoh:** Mazkur ro‘yxatdagi mavzulardan seminar mashg‘ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e’tibor berish tavsiya etiladi.

V. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qadimgi turkiy bitiktoshlar ustida kuzatishlar olib borish; ularning asli, transkripsiyasi, mazmunini muqoyasa qilish.
2. Bilga xoqon bitigtoshi matnidagi sof turkiy so'zlarni aniqlash.
3. O'ngin bitigtoshi matnidagi leksik qatlamni belgilash.
4. Kultegin bitigtoshi matnidagi so'z yasovchi affikslar.
5. Mo'yuchur bitigtoshi matnidagi qo'shma va juft so'zlar.
6. Kulichur bitigtoshi matnidagi tub so'zlar.
7. "Oltun yoruq"dagi so'z birikmalari.
8. O'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlarni ifodalovchi harflar ishtirok etgan so'zlarni yozish.
9. Mustaqil o'qish uchun Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur g'azallari asarlari matni ustida ishlash.
10. Mashrab, Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar she'riy asarlari matni ustida ishlash.
11. Fitrat, Qodiriy, Avloniy asarlari matni ustida ishlash.
12. O'zbek tilining o'rganilishi.
13. O'zbek tilining qiyoslanishi.
14. O'zbek tili tarixini davrlashtirishga oid turkologiyadagi qarashlar.
15. Otlarda bo'lishsizlik shakli.
16. Vosita kelishigi.
17. Fe'ldan sifat yasovchi affikslar.
18. Sifatlarda belgining ortiqligi yoki kamligini ifodalovchi shakllar.
19. Birgalik va gumon olmoshlari.
20. Aniqlik mayli: hozirgi (hozirgi – kelasi), o'tgan va kelasi zamon.
21. Ravishlarda daraja formasi. Sifatdosh oboroti, ravishdosh, harakat nomi oborotlari.
22. Bitishuv munosabatga kirishgan so'zlar.
23. Izofa, so'z birikmasi turlari.
24. Uyushiq bo'laklar. Gap bo'laklarining tartibi.
25. Undalma va kirish so'zlar.
26. Bog'langan qo'shma gapni tashkil etishda teng bog'lovchilarning roli.
27. Ko'chirma gap.
28. "Devonu lug'otit turk" ning tuzilishi.
29. "Devonu lug'otit turk"dagi etnonimlar.
30. "Devonu lug'otit turk"dagi harakat fe'llari.
31. "Qutadg'u bilig" dagi nisbiy sifatlar.
32. "Hibatul-xaqoyiq"dagi onomastika.
33. "Qisasi Rabg'uziy"dagi arxaizmlar.
34. "Guliston bit-turkiy" matnidagi forsiy izofalar.

	<p>35. “Xusrav va Shirin” dostonidagi o‘g‘uzcha elementlar.</p> <p>36. “Muhabbatnoma” matnidagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi.</p> <p>37. “Muhokamatul-lug‘atayin”dagi ma‘nodosh va shakldosh so‘zlar.</p> <p>38. “Mezonul-avzon”dagi qo‘shiq nomlari.</p> <p>39. “Boburnoma”dagi mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar.</p> <p>40. Bobur she‘riyatidagi asl turkiy so‘zlar.</p> <p>41. “Shayboniynoma” asaridagi ijtimoiy, siyosiy va harbiy terminlar.</p> <p>42. “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlar.</p> <p>43. Ogahiy tarixiy asarlaridagi sintaktik konstruksiyalar.</p> <p>44. Munis g‘azallaridagi turkiy izofa.</p> <p>45. Furqat she‘riyatidagi ruscha o‘zlashmalar.</p> <p>46. Muqimiy asarlaridagi majoziy so‘zlar.</p> <p>47. “Turkiston viloyati” gazetasi matnidagi neologizmlar.</p> <p>48. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti asarlaridagi okkozionalizmlar.</p> <p>Izoh: Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta‘lim soatlari hajmiga asoslanish, mavzulardan tanlab foydalanish, mustaqil ishni bajarish jarayonida belgilangan ko‘rsatmalarga amal qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga quyidagi talablar qo‘yiladi. Talaba:</p> <p>“O‘zbek tili tarixi” fani bo‘yicha bakalavr ko‘k turk yozuvi bitiktoshlari, qadimgi turk-moniy yozma yodgorliklari, turk-budda diniy-falsafiy asarlari va ularning til xususiyatlari, O‘rta Osiyo xalqlari yozuvi tarixi, arab yozuvi va uning joriy qilinishi haqida bilimlarga ega bo‘lishi;</p> <p>-til tarixi masalalariga doir metodlarni, kichik matnlarni fonetik, grammatik tahlil qilishni, eski o‘zbek yozuvi alifbosi va uning imlo qoidalarini, qo‘lyozma matnlarni o‘qish va yozishni, ta‘rih san‘ati asosida mutafakkirlarning tug‘ilgan sanalarini aniqlash malakasiga ega bo‘lishi;</p> <p>-tarixiy tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish, o‘zbek tili tarixini davrlashtirish masalasiga munosabat bildirish, eski turkiy adabiy til va uning yodgorliklarini tavsiflash, eski o‘zbek adabiy tili va shu tilda bitilgan yozma manbalarni tahlil qilish, o‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatik taraqqiyotiga doir ma‘lumotlarni umumlashtirish, o‘zbek adabiy tilining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, o‘zbek adabiy tilining qardosh turkiy tillar bilan munosabatini faktik material asosida yoritish ko‘nikmalariga;</p> <p>– tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligini tahlil qilish, leksik-semantik hodisalarni anglash kompetensiyasiga ega bo‘lishi kerak.</p>
4.	<p>VII. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma‘ruza;

	<ul style="list-style-type: none"> • “keys-stadi”lar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimot texnologiyasi; • intellekt xaritalar; • konseptual jadvallar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va metodik tushunchalarni o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, til va nutq rivojiga oid jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa hamda topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. –Toshkent, 2019. 2. Abdurahmonov G‘, Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. 3. Абдурахмонов Ф. Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982 4. Мухторов Ж, Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995 5. Турсунов У, Ўринбоев Б, Алиев А., Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 6. Marsel Erdal. A grammar of old Turkic. –Brill. 2004. 7. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. –Toshkent, 2009. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. 6. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. 2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги «Ўзбек тилининг давлат тили сифатдаги нуфузини ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. 5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель). 6. Abdushukurov B. Eski turkiy til leksikasi. - Toshkent, 2015. 7. Абдушукуров Б. XI – XIV асрларга оид ёзма манбалар тили. – Тошкент: Nodirabegim, 2020.

8. Айдаров Г. Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века. Атма-Ата, 1971.
9. Абдурахмонов Ғ. Рустамов А. Алишер Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1981.
10. Абдурахмонов Ғ, Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973.
11. Баскаков Н. Тюркские языки. - Москва, 1960.
12. Батманов И. Язык Енисейских памятников древнетюркской письменности. Фрунзе, 1959.
13. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Тошкент, 1985.
14. Дадабоев Ҳ. Тарихий ҳарбий терминлар. – Тошкент: Университет, 2008.
15. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи (XIV аср ярми- XX аср боши). –Тошкент: Фан, 2007.
16. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. –Тошкент: Ўқитувчи, 1989.
17. Исҳоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
18. Кононов А. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.. –Ленинград, 1980.
19. Маҳмудов Қ. XIII – XIV туркий ёзма обидалар тилининг фонетик системаси. –Тошкент: Фан, 1990.
20. Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихининг илк даврлари. – Тошкент: Фафур Гулом, 2004.
21. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Тошкент, 1965.
22. Холманова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент, 2007.
23. XIII-XIV асрлар туркий адабий ёдгорликлар тили. Морфология. – Тошкент, 1986.
24. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. – Тошкент. 1990.
25. Фазылов Э. Будапештская рукопись «Гуль и Навруз» Лютфи. - Т., 2006.

Elektron manbalar

1. www.literature.uz.
2. <http://en.wikipedia.org/wiki/>
3. library.ziyonet.uz
4. www.utpa.edu
5. www.natl.uz.
6. www.arxiv.uz.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadimgi_turkiy_tillar
8. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/turkiy-xalqlar-adabiyotining-ildizlari/>
9. https://www.wikiwand.com/uz/Turkiy_tillar
10. <https://fayllar.org/qadimgi-turkiy-til-leksikasi.html>
11. <https://www.twirpx.com/file/1918676/>
12. https://youtu.be/lj_LZ8ZUV2I
13. <https://youtu.be/scswmkfknd0>

7.	<p>Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202__ yil “__” _____dagi ____ -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 202__ yil “__” _____dagi _____ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.</p>
8.	<p>Fan / modul uchun mas’ullar:</p> <p>B.Abdushukurov– Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori doktori</p> <p>M.Xolmuradova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Q.Omonov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori</p> <p>T.Tog‘ayev – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi</p>